



ABDULLA ORIPOV IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR TASVIRI

Rajabov Eliyor Xoliyorovich

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

elyorrajabov67@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15533101>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 27th May 2025

KEYWORDS

umuminsoniy g'oyalar, badiiy tafakkur, shaxsiyat, poetika, haqiqat, imon.

ABSTRACT

Maqolada Abdulla Oripov ijodida ifodalangan umuminsoniy g'oyalar, ularning badiiy talqini va poetik yondashuv xususiyatlari o'rganiladi. Shoir asarlaridagi insonparvarlik, ezgulik, haqiqat, imon, ma'naviy barkamollik kabi tushunchalarning obrazlar va timsollar orqali qanday ifoda topgani tahlil qilinadi. Umuminsoniy g'oyalar bilan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhining mushtarakligi mualliflik pozitsiyasi asosida yoritiladi.

Kirish. Adabiyot insonda milliy mafkurani yuksaltirib, uni ongli mavjudotlar ichidada ongliroq bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonasining ulug' yozuvchi-shoirlari garchand ko'pchiligi "mafura"ga xizmat qilgan bo'lsa-da, ijod borasida adabiyot mezonlari qobig'idan o'ta olganlar. Ana shunday murakkab davrda bo'y ko'rsatish shoir - yozuvchida ikkilanish: yozsammi, yozmasammi qabilidagi savollar o'ylantirishi tabiiy. Abdulla Oripov hayoti ham ana shunday murakkab davr ostonasidan shiddat bilan o'tdi-yu ketdi. Shoir adabiyotni asarlar, ijodni iste'dod bilan birga tushunar edi. Adabiyot oldida mas'uliyatni his qilardi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Shunday yuksak asarlarni yaratish uchun ijodkorga murakkab, og'ir davr kerakmi? Qahramonimiz Abdulla Oripov o'zining "Tanlangan asarlar"ida ta'kidlaydi: "Kimdir aytgan, yuksak san'at asarlari, jumladan adabiyot namunalari ham jamiyatning inqilobiy burilish nuqtalarida, qarama-qarshiliklar kuchaygan chorrahalarida paydo bo'ladi. Umuman, hayotga nazar tashlaganda ham bunga ko'plab misol topish mumkin. Zotan, she'riy asar shoir kayfiyatidagi muvozanatning og'ishidan tug'iladi. Loqayd davr yoxud loqayd ruhiyatdan yuraklarni jizillatgulik hosila tu'ilishi qiyin. Sizning yuqoridagi savolingizni umuman adabiy jarayonga yoxud ayrim ijodkor tarjimai holiga ham tadbiiq etib ko'rsa bo'ladi. Pushkinning she'rlaridan birida g'alati kinoyaviy tashbeh bor. Balki u haqiqatan ham hayotiy tashbehdir. O'sha she'rning mazmuni taxminan shundoq: shoirlarni surgunga ko'proq jo'natib turish kerak, ana shundagina ular achchig'i chiqqanidan ajoyib she'rlar yozib, bizni noma'lum tuyg'ularga oshno etadi. Shu ma'noda, kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deganlaridek, ko'pincha qatag'on davrlar ijodkor ahlini maydonga, xufiya bo'lsa-da kurashga chorlab kelgan. Siz aytayotgan o'n yilliklarda esa, har birining o'z qiyinchiliklari yoxud she'riy maydonlari bor edi. Masalan, fashizmga qarshi kurash davri hech so'zsiz barcha ijodkorlarda misli ko'rilmagan insonparvarlik, vatanparvarlik, yovga nafrat tuyg'ularini uyg'otgan¹. Badiiy asarning mavzusi azaldan uning boshqaruvchi g'oyasi yoki markaziy tushunchasidir. Mavzuni aniqlash uchun o'quvchi asar hayotga qanday qarashni qo'llab-quvvatlashini yoki real

¹ Орипов А. Танланган асарлар. Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти. -Т.: 2001.- Б.120

dunyodagi hayotga qanday qarashni ochib berishini so'rashi kerak bo'ladi. Ko'pincha badiiy asar barcha erkak va ayollarning tabiati, odamlarning bir-biriga yoki koinotga bo'lgan munosabati haqidagi fikrlarni o'z ichiga oladi. Bular jahon adabiyotida universal mavzular deb ataladi.

Uslub .Tadqiqotda adabiy-tarixiy, tematik-tahliliy, poetik va kontekstual yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shoirning «Haj daftari», «Sohibqiron», «Imon», «O'zbekim», «Munojot» kabi she'riy to'plam va dostonlari tahlil markaziga olindi. Bunda zamonaviy adabiy tanqid uslublari, poetik struktura, obrazlilik, timsollar tizimi va shoirning falsafiy dunyoqarashi asos qilib olindi.

Adabiyotdagi universal g'oya va mavzular ushbu qatordagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- *Insonning tabiatga bo'lgan munosabati,*
- *Insondagi odamgarchilikning yo'qligi;*
- *Shaxslar o'rtasidagi ehtiros va mas'uliyat;*
- *Insonning o'tmishni ulug'lashi/o'tmishni rad etishi;*
- *Ideal va real o'rtasidagi keskinlik;*
- *O'tmishning hozirgi kunga ta'siri;*
- *Taqdirning muqarrarligi;*
- *Tenglik, haq uchun kurash;*
- *Umidsizlik;*
- *Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mojarolar;*
- *Tashqi ko'rinish va haqiqat o'rtasidagi to'qnashuv(qiyofalar o'rtasidagi to'qnashuv);*
- *Ishq va oshiq;*
- *Yutuq va kamchiliklar.*

Inson kamoli uchun yaratilgan har bitta noyob asar millat ma'naviyati uchun, millat hayoti uchun o'ziga xos voqeadir. Biroq bu voqealar zamirida shu millat, elat ijtimoiy tuyg'ularidan tortib, millat ijtimoiy voqealarini madh etishdek murakkab vazifa o'rin olgan. Abdulla Oripov deganda, ana shunday sabot ila katta ishga qo'l urgan millat qahramoni ko'z oldimizda gavdalanadi. Asrimizning ulug' olimlaridan Ibrohim G'afurov ta'kidi bilan aytganda: "Abdulla Oripov kechagi kungi ko'klarga ko'tarib maqtashlardan, she'riyatimizning yulduzi, meteorit deb hamd-u sano to'qishlardan yuqori ko'tarila oldi. U hech bir mushakbozlik, hech bir vaqt, hech bir kimsaga bog'lab berilmaganligini anglab yetdi. Men chuqur ishonamanki, uning yetmishinchi yillar she'ri oltmishinchi yillar she'ridan farq qiladi, u yangi ohanglar, yangi vositalar topadi, yangi ifodaviylikka erishadi"². Haqiqatan shoir ijodi o'zgaruvchan, ammo undagi haqiqatlar, hikmatlar asosi o'zgarmasdir. Yetmishinchi yillarda yaratilgan "Istak" she'rida Haq yaratgan insonga hurmat, tilak nechog'lik mehr bilan sayqallanganiga guvoh bo'lamiz:

Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,

Yulduzdan nur sochsin chashming-qaeog'ing.

² Oripov A. Tanlangan asarlar.-Toshkent: 2019. -B.305

Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,

Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing³.

Shubhasiz, inson yaralmishki, uni ulug'lash, e'zozlash qadriyatlarimiz belgisi sifatida burchimizga aylanib qolgan. Shoir insonning insonga bo'lgan hurmat-e'tiborini saqlab qolishga harakat qilgani ayon. Uning bir jurnalistning: "**Abdulla aka, balki, ma'naviyatni asrab qolish ham bir taraqqiyotdir?**" mazmunidagi savoliga shunday javob beradi: "Shubhasiz! Shuning uchun buyuk insonlar mudom ma'naviy tarbiyani kanda qilmaganlar. Tarixda bunday misollar ko'p. Odamning aqlini lol qoldiradigan ko'pdan ko'p tenglamalarni kashf etgan Eynshteyn ruhiy tashnalikka fosh berolmay skripka chalgan. Bu G'arb allomalarining fazilati. Sharqda esa insoniy komillik, ma'naviy yetuklik eng asosiy masala hisoblangan"⁴. Millat ma'naviy kelajagidagi xavotir-u tashvishlarni oldindan seza olgan shoir unga baholi qudrat tayyor turishdek mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan ijodkorlardan desak, adashmaymiz. Xo'sh, adibda bunday fazilat qayerdan paydo bo'ldi?! Bolaligi somon o'rish, pichan yig'ishdek oddiy qishloq bolalari qatori og'ir yumushlar bilan kechdi. O'zining xotira kitoblarida Abdulla Oripov uyida bir-ikki kitobdan bo'lak hech narsa bo'lmaganini, kundalik yumushlar bilan band bo'lib bir dam osmonga, yulduzlarga tikilishdek ajoyib vaqtlar bilan o'tganligini ta'kidlaydi. Otasi Orif boboning xotirasi anchayin kuchli bo'lganligini intervyularda aytib o'tadi. Abdulla Oripovga donishmandlik, faylasufona qarashlar Allohning ne'mati ila otasi Orif bobodan o'tganligi shubhasiz. Shoir yigitlik davridan dunyoni ilg'ashga, dunyoni anglab yetishga urina boshladi. "Pushkinni ko'p o'qir edim, Tolstoyni o'qir edim", deydi xotiralarida. Sharqliklar fazilati asrlar silsilasida yo'q bo'lib ketmaganidek, o'qish, o'rganish tushunchasi avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'qirmanning burchidir. Avvalo, adabiyotni, san'atni anglash lozimdir. Tolstoy ta'biri bilan aytganda: "Adabiyotsiz odamlar yovvoyi hayvonlarga o'xshab qolishadi"⁵. Inson yuragida qat-qat alamlar, g'am tashvishlar ham bo'lishi, tabiiy. Abdulla Oripov qalbini larzaga keltirgan yana omil borki, u mehr-oqibatning yo'qolib borayotganligi. Shoir 70-80-yillarda o'zining "Surat va siyrat" deb nomlangan she'riy to'plamidan joy olgan "Qo'riqxon" she'rida shunday deydi:

Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,

To uni yuzsizlik etmasin xarob.

Ezgulikni asrang, olamda u ham

Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.

[Oripov A. Surat va siyrat. -Toshkent, 1981. -B.14.]. Shoir nazdida "insof", "oqibat", "ezgulik", "iymon" tushunchalari zavol topmasligi sharti sifatida ko'rsatib o'tadi. Yaqin o'tmishimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuragimiz andak achishadi. Bo'g'zimizga bir nima tiqiladi. Biz bilgan bilmagan ne-ne kishilar jonlarini qurbon qilishdi. Shunday og'ir tariximizni ma'nan yuqoriga ko'tarish, ularni xotirlash bugungi yoshlarning burchi sifatida qabul qilinishi ijtimoiy qadriyatimiz asosidir.

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Navoiy, Bobur kabi ulug' ajdodlarimiz merosini asrash va e'zozlasak, biz o'z burchimizni ado etgan bo'lamiz. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Vatan qalqoni bo'lgan, mislsiz bahodir va qudratli timsol Jaloliddin Manguberdi martabasini

³ Орипов А. Сурат ва сийрат. -Тошкент:1981.-Б.37

⁴ Орипов А. Танланган асарлар. Тошкент: 2001. -Б.194

⁵ Austin Nyugen. The University of Western Australia. Word fix. 2020.

asl tarixiy maqomiga ko'tarish vazifasini ilgari surgani ham quvonarlidir. Asl shoir esa bunday tarix oldida mum tishlab emas:

Seni Chingiz g'azabga to'lib,

Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.

Jaloliddin samani bo'lib,

Sakrab o'tding Amudaryodan.

Sensan, o'shal samanim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim...⁶

deya baralla aytganda, undagi milliy tuyg'ularning jo'sh urishini ko'rishimiz mumkin. Aynan shu milliy tuyg'ular bilan birgalikda bolqor shoiri Qaysin Quliyevning o'sha mashhur she'rida aytilganidek, "zamin mo'jizalar berar-u bizga, evaziga faqat hayrat so'raydi".⁷

Abdulla Oripov ijodining katta qismi Vatanga bo'lgan muhabbat sanaladi. Odamzot qayerda tug'ilsin, u kindik qoni to'kilgan joy uning mahbub Vatani sanaladi. Endi mana shu diyorni madh etish uning eng ezgu g'oyalaridandir. Tili, dini, millatidan qat'i nazar inson uchun bu go'sha butun bashariyat uchun aziz va qadrlil bo'lmog'i lozim. Farzand dunyoga kelganda uni asrab-avaylashadi. Oq sut berib katta qilishadi. Kamolotga yetkazadi. Qanchalar murakkab va og'ir vazifa. Vatani sarhadlarini asrash ham shunchalar og'irdir. Shoir aytganidek: "Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma, aslo".

Natijalar. Abdulla Oripov asarlarida umuminsoniy g'oyalar quyidagi jihatlar orqali ifodalangan:

1. **Inson va uning ruhi** – Shoirning "Munojot" asarida inson o'z gunohlari bilan yuzmayuz turadi, Allohdan mag'firat so'raydi. Bu yerda inson qalbining poklanishi markazga qo'yiladi.
2. **Imon va adolat** – "Imon" she'rida shoir halollik va e'tiqod masalasini teran falsafiy ruhda yoritadi. Unga ko'ra, haqiqatga yetish imon orqali sodir bo'ladi.
3. **Vatan va insoniyat** – "O'zbekim"da milliy g'urur umuminsoniy g'oya darajasiga ko'tariladi. Shoir vatanni madh etish orqali umumiy insoniy qadriyatlarni tarannum etadi.
4. **Tarix va haqiqat** – "Sohibqiron" dostoni orqali shoir o'tmishdagi buyuk siymolar timsolida bugungi kunga ta'sir etuvchi tarixiy saboqlarni ilgari suradi.

Odatda adabiyot ichida milliy madaniyatlar, san'at va adabiyotlarni "G'arb" va "Sharq" deb ajratiluvchi tushuncha bo'lmasligi tarafdorimiz. So'z bilan ishlovchi kitobxon tuyg'ularin qoq ikkiga bo'lish, fikrimizcha g'ayrioddiy qarashdir. Abdulla Oripov ijodidagi dunyoga murojaat sifatida qaratilgan "Qo'riqxon" she'ri esa jo'ngina murojaat emas. Abdulla Oripovning sho'ro davri she'riyatida zamonasozlik ruhida, davr va mafkura tazyiqi bilan yozilgan jamiyat ideallari, tushunarsiz g'oyalari, tuzum qahramonlari, yo'lboshchilari ulug'langan she'rlari mustaqillikkacha chop etilgan to'plamlarda uchraydi. Ammo uning ijodini eskicha mezon belgilamaydi. Ayrim zamonabop namunalani hisobga olmaganda shoir ijodi zamonlar sinovidan o'tuvchi, umumbashariy qadriyatlar talabiga javob beruvchi asarlardan tashkil topgan. Ushbu she'rlar, ayniqsa, chuqur milliy ruhi bilan ajralib turadi. A.Oripov she'riyati o'zbek milliy badiiy tafakkuri va ruhiyati taraqqiyotida o'z cho'qqisiga chiqib bo'lgan edi. Bu

⁶ Орипов А. Танланган асарлар. -Тошкент, 2001.-Б.258.

⁷ Uldona Abdurahmonova. Xonni kimyo etar Inson hayrati. Maqola. Sharq yulduzi. 8-son, 2021.-B.159.

70-80- yillar she'riyati bilan bog'liq. Shoir o'sha paytda alohida qahramon tirnsolida ruhiyatning insoniyatga aloqador turfa jihatlarini, nuqtalarini ochishga bel bog'lagan. Yuqoridagi tahlilga qaytadigan bo'lsak, "Qo'riqxonona" she'ridagi lirik qahramon ichki olamining boyligi, tafakkurining chuqur va o'tkirligi bilan ajralib turadi, U dolzarb, shu jumladan umumbashariy muammolarni mustaqil tahlil eta bilishi borasida XX asrning mushohadakor, kuyunchak qahramonidir. Alloh tomonidan butun insoniyatga berilgan moddiy-mavhum ne'matlarni asrab-avaylashlik xususida kuyunchaklik bilan qalam tebratdi. U xoh o'simlik bo'lsin, xoh tirik jonzot, hatto boshqa bir she'rda "Inson qalbi bilan hazillashmang, siz, Unda Ona yashar, yashaydi Vatan!" deya inson qalbiga ham ozor bermaslik fazilatlarini bashariyatga yetkazmoqchi bo'ladi. Bu fikr-g'oyalar she'rda badiiy go'zal, milliy yo'sinda talqin qilinadi. Ezgulik tojdor turnadek kamyob bolib ketmasin, hayo otashga duch kelgan palapondek kuyib nobud bo'lmasin, imonni odamlar qor odamdek qidirib yurishmasin, bulbul maqomini boyqush da'vo qilgandek, go'zal tuyg'ular o'rnini xudbinlik dilozorlik egallamasin, deya jar solishlar adabiyotda "shoirning isyoni" deya baholanadi. Bulaming barchasini avaylab, asramoq zarur. Bunday umumbashariy qadriyatlarini ehtiyot qilishga chorlayotgan lirik qahramonlar o'zbek milliy tafakkuri va ruhiyati takomiliga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday qahramon tabiatida davr va zamonning muhim ma'naviy muammolari o'z ifodasini topadi:

To'qayga o't ketsa yongay bus-butun,

Adolat borliqqa yolg'iz Onadir.

Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun,

Yovuzlikdan zada qo'riqxonadir.

Shoirning lirik qahramonlari sbu tariqa mehrparvar, o'zgarlar mehriga kuyunchak, ayni paytda, o'zlari ham mehrga doimo maxtal kishilardir.

Muhokama. Abdulla Oripov she'riyatida umuminsoniy g'oyalar shunchaki mavzuga aylanmaydi, balki bu g'oyalar poetik strukturaning asosiy g'ishtlari sifatida xizmat qiladi. U o'z millatining dardini butun insoniyatning dardiga aylantira oldi. Ayniqsa, diniy-falsafiy mavzularni yoritishda shoir chuqur axloqiy-falsafiy tahlilga boradi. Uning badiiy tafakkuri zamonaviylik va tarixiylikni uyg'unlashtirgan, xalqona va falsafiy yondashuvni birlashtira olgan noyob hodisa sifatida baholanishi kerak. Shu bilan birga, shoir asarlaridagi ramz va timsollar umumiy badiiy kontekstni boyitadi. O'tgan davr kishilari tafakkuri Abdulla Oripov uslubiga moslashganligini uning ijodini yod olganligida ko'rishimiz mumkin. Ammo ulug' qadriyatlarimiz, milliy ruhimiz, milliy o'zligimizni oniy lahzada ifoda etgan ikodkorni bugun o'qiguvchilar o'quvchilar o'rtasida ko'paygan. Bunga javob tariqasida shuni aytmoqchimiz: Abdulla Oripov she'riyatini o'rganish, mohiyatan tushunish biroz talabchanlik, topqirlik, mushohada ko'rikni talab qiladi-da! Muhammad Yusufning "Lolaqizg'aldoq"i oddiy dehqon uchun ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin Abdulla Oripovning "**Har qanday lang Temur bo'lolmas**", yoki "**Har kimning o'z quyoshi o'z ufqiga botgaydir**" satrlari hammaga o'z tarovatini ochavermaydi. Shu sababli ijodkorni anglash uchun o'qirmandan biroz fikr qilish talab qilinadi. E'tibor bersangiz, etmish yillik tayyorgarlikdan so'ng bizda modernizm endi adabiy oqim tusini ola boshladi. Avvalo o'sha etmish yillik tajriba bu oqimning birinchi asos-zaminidir. Adabiyot va san'atning uzoq davom etgan hukmron mafkuraviy siyosiy tazyiq iskanjasidan xalos bo'lishi bizda xilma-xil falsafiy ijodiy oqimlar, jumladan, modernizmning erkin rivoji uchun yo'l ochib berdi. Tabiiyki, bugungi o'zbek modern adabiyotida, G'arb, qolaversa, jahon zamonaviy adabiyoti, san'atidagi talay falsafiy-ijodiy oqimlar, ayniqsa, ekzistensializm falsafasi, adabiyoti tajribalari ta'sirini ko'rish mumkin.

Xulosa. Yozuvchi va shoir Ulug'bek Hamdam: — Noan'anaviy she'riyat bizda osonlik bilan o'ziga yo'l topayotgani yo'q. Ehtimol, noan'anaviy hodisalarning, yangi, hali "yurilmagan" yo'llarning ilk taqdiri hamisha ham shunday bo'lar. So'ngra esa ko'nikish, qabul qilish va hatto mehr qo'yish degan bosqichlar kelar. Axir, 70-yillar avlodining noan'anaviy she'rlarining ayrimlarida bir qadar sun'iylik sezilib qolishi barobarida kunimiz yoshlarining modern izlanishlarida tabiiylikni kuzatish mumkin-ku! Va shu holning o'ziyoq "yangi yo'l"ning tobora "yoyila boshlagani"dan dalolat emasmi? Shoirlik da'vosi bor talabalarimdan biri aytib qoldi: "Men an'anaviy she'riyatdan, uning an'anaviy va hatto bir qadar jo'n ifoda tarzidan hayajonga tushmay qo'nganman. Qaytaga, masalan, "Ko'zlarimda ikkita shovqin" deganga o'xshash misralarni o'qib qolgudek bo'lsam, borlig'im titrab, she'r ruhiga g'arq bo'laman. Bilasizmi, men o'sha ikkita shovqinning nima ekanligini biladigandekman, ular mening botinimda yashayotgandek bo'laveradi"⁸ deyishida haqiqat bordek. Ammo har qanday yangilik ham o'zining yaxshi natijasini beravermaydi. Abdulla Oripov o'zining uchlik qofiyalanishga ega she'riy asarini e'lon qilganda, asar keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. *Imon*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2001.
2. Oripov A. *Sohibqiron*. Toshkent: Sharq, 1996.
3. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Xudoyberdiyev M. "Abdulla Oripov she'riyati va falsafiy tafakkur", *O'zbek tili va adabiyoti*, 2012, №4.
5. Qo'chqor N. *Yurak so'zlari*. Toshkent: Adabiyot, 2015.
6. Uldona Abdurahmonova. Xonni kimyo etar Inson hayrati. Maqola. Sharq yulduzi. 8-son, 2021.-B.159.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar.-Toshkent: 2019. -B.305

INNOVATIVE
ACADEMY

⁸ Hamdam U. Khurshid_davron.uz